TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLIISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQUISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKIOTLARNI MOLIYAVIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSIALARNING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li	
JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)	1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGI.....	1199
Tangrieva Farida Abduraimovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI	1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1211
Sapayev Axmed Durdibayevich	



АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH	1222
B.B.Seilbekov	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN'S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN).....	1230
Sitara Tojiqulova Sobirjon qizi	
BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI	1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
1-WIRE PROTOKOLI ASOSIDA BIOSIGNALLARNI UZATISH JARAYONI VA MA'LUMOTLAR STRUKTURASINI LOYIHALASH	1245
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA VA UNING XUSUSIYATLARI	1250
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	
ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ.....	1257
Хамидходжаева Назира Махкамовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG'LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI.....	1260
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISH HOLATI	1264
Xusanova Gavhar	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LTE VA NR TARMOQLARINING BIRGALIKDA ISHLASHINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	1270
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
THE OPPORTUNITIES OF PERSONALIZING TOURISM SERVICES THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE	1276
Olimov Davron Olimovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИОЖУРНАЛИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОГО ЭФИРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ	1281
Мамадалиева Шахноза Абдумаликовна	
EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN'S PUBLIC UNIVERSITIES.....	1289
Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich	
ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	1297
Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA.....	1304
Rabiyev Akram Homitovich	
AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	1311
Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich	
ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА	1318
Худайберганава Зарофат Захидовна	
К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ	1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна	



JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING MODELLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	1330
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI	1336
Norov Murodjon Maxmudovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1342
Maxkamov Otabek Muxammadjonovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	1351
Egamberdiyev Jonibek O'ralovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI	1354
Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1360
Xamdamonov Shaxzod Ilxom o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1365
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI	1371
Jalalova Dildora Jamolovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA.....	1375
Karshieva Marjona Alisher kizi	
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1380
Qurbonova Malika Ahmad qizi	
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	1384
Uzoqov Farhod G'afforovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....	1388
Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1392
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI	1396
Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna	
RAQAMLI MOLİYAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	1402
Muyassarzoda Fayziyeva	
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1408
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna	
JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI.....	1414
Ismailov Azizbek Ruzimaxamatovich	
OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR.....	1425
Zakirova Oisha	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ	1431
Сиддикова Гулноза Абдумаликовна	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI.....	1437
Nuraliyeva B.	
TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1443
Raximov Xasan Shukurjonovich	
XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MA'LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH	1450
Kurolov Maksud Obitovich	
TA'LIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH.....	1460
Esanova Shohida	
НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	1468
Хамзина Динара Рашатовна	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	1473
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH	1482
Masharipova Sevara Bekturdi qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATION USULLARI	1487
Marimova Indira Rasul qizi	
DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODEL.....	1492
Murodov Orif Jumayevich	



DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODELİ

Murodov Orif Jumayevich

Renessans ta'lim universiteti. Texnika fanlari doktori, professor.

Orcid: <https://orcid.org/0000-0002-7016-8680>

Email: orifakadem@mail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlat korxonalarini isloh qilishning zamonaviy bosqichlari va xususiylashtirish modelining shakllanish jarayonlari ilmiy tahlil etilgan. Avvalo, birinchi Prezident I. A. Karimov tomonidan asos solingan "o'zbek modeli"ning besh tamoyili asosida olib borilgan iqtisodiy islohotlar va ularning bugungi kunda Sh. M. Mirziyoyev rahbarligida yangi bosqichga o'tayotgani yoritilgan. Maqolada xususiylashtirishning bosqichlari, usullari, qonunchilik asoslari, tijorat banklarining faollashuvi, xorijiy sarmoyadorlar ishtirokidagi yangi yondashuvlar, shuningdek, korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish zarurati tahlil qilinadi. Davlat mulkini xususiylashtirish bo'yicha yangi qonun (O'RQ-907, 2024) doirasida amalga oshirilayotgan islohotlarning strategik ahamiyati asoslab berilgan. Muallif xususiylashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini ko'rsatgan holda, zamonaviy texnologiyalar, shaffoflik va boshqaruv madaniyatining iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini ochib bergan. Maqola ilmiy, amaliy va tahliliy yondashuvlar asosida yozilgan bo'lib, iqtisodiyot sohasi tadqiqotchilari, amaliyotchilar va talabalari uchun foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: xususiylashtirish, davlat korxonalari, islohotlar, "o'zbek modeli", evolyutsion rivojlanish, korporativ boshqaruv, tijorat banklari, strategik investor, raqamli iqtisodiyot, mulkchilik.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the modern stages of state enterprise reform and the formation of the privatization model in the Republic of Uzbekistan during the transition to a market economy. It highlights the economic reforms implemented under the five principles of the "Uzbek model" founded by the First President I. A. Karimov, and their transformation into a new phase under the leadership of President Sh. M. Mirziyoyev. The paper examines the stages, methods, and legal foundations of privatization, the growing role of commercial banks, new approaches involving foreign investors, and the need to improve corporate governance. The strategic importance of ongoing reforms under the new Law "On the Privatization of State Property" (Law No. O'RQ-907, 2024) is substantiated. The author emphasizes the socio-economic significance of privatization, revealing how modern technologies, transparency, and management culture affect economic efficiency. The article, based on scientific, analytical, and practical approaches, serves as a valuable resource for researchers, practitioners, and students in the field of economics.

Key words: privatization, state enterprises, reforms, "Uzbek model", evolutionary development, corporate governance, commercial banks, strategic investor, digital economy, property ownership.

Аннотация. В данной статье научно проанализированы современные этапы реформирования государственных предприятий и процесс формирования модели приватизации в Республике Узбекистан в период перехода к рыночной экономике. Освещены экономические реформы, проведённые на основе пяти принципов «узбекской модели», заложенной первым Президентом И. А. Каримовым, и их переход на новый этап под руководством Президента Ш. М. Мирзиёева. В статье рассматриваются этапы, методы и правовые основы приватизации, активизация деятельности коммерческих банков, новые подходы с участием иностранных инвесторов, а также необходимость совершенствования системы корпоративного управления. Обосновано стратегическое значение реформ, осуществляемых в рамках нового Закона «О приватизации государственного имущества» (Закон № O'RQ-907, 2024). Автор показывает социально-экономическую значимость приватизации, раскрывая влияние современных технологий, прозрачности и культуры управления на экономическую эффективность. Статья написана на основе научных, аналитических и практических подходов и может служить полезным источником для исследователей, практиков и студентов в области экономики.

Ключевые слова: приватизация, государственные предприятия, реформы, «узбекская модель», эволюционное развитие, корпоративное управление, коммерческие банки, стратегический инвестор, цифровая экономика, собственность.



KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakat iqtisodiyotida tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, bozor mexanizmlariga asoslangan milliy iqtisodiyotni shakllantirish eng ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Mazkur yo'nalishda birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan "o'zbek modeli" mamlakatni inqilobiy siljishlarsiz, bosqichma-bosqich iqtisodiy islohotlar sari olib chiqqan konseptual dastur sifatida tarixiy ahamiyat kasb etdi. Ushbu modelning besh tamoyili — iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, davlatning bosh islohotchi sifatidagi roli, ijtimoiy himoyani ta'minlash, iqtisodiyotni mafkuraviy ta'sirdan xoli etish va qonun ustuvorligi — O'zbekistonning milliy rivojlanish strategiyasining asosi bo'lib qoldi.

Mazkur tamoyillar nafaqat mustaqillikning dastlabki yillarida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda, balki bugungi globallashuv davrida ham dolzarb ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Aksincha, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida ushbu tamoyillar zamonaviy iqtisodiy transformatsiya, raqamli iqtisodiyot va xususiy sektorni rivojlantirish jarayonlari bilan uyg'unlashtirilmoqda. "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilanganidek, iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulkni himoya qilish va tadbirkorlik uchun erkin muhit yaratish mamlakat taraqqiyotining asosiy yo'nalishiga aylangan.

Shu jihatdan, davlat korxonalarini isloh qilish va ularni xususiylashtirish jarayonlari mamlakat iqtisodiy siyosatining markaziy bo'g'iniga aylandi. Xususiylashtirish nafaqat mulkchilik shaklini o'zgartirish jarayoni, balki boshqaruv madaniyatini, ishlab chiqarish samaradorligini va ijtimoiy mas'uliyatni yangi bosqichga olib chiqish mexanizmi sifatida qaralmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki bosqichlarida "davlat tasarrufidan chiqarish" va "xususiylashtirish" tushunchalari o'zaro bog'liq bo'lgan bo'lsa-da, bugungi kunda ular yanada chuqurroq iqtisodiy mazmunga ega bo'lib, strategik rivojlanish omiliga aylangan.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi hukumatidan xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan qator huquqiy va institutsional islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, 2024-yil 14-fevralda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonun (O'RB-907) ushbu sohada munosabatlarni zamonaviy sharoitlarga mos tarzda tartibga solish, davlat aktivlarini boshqarishda shaffoflikni ta'minlash va investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan. Ushbu hujjat orqali xususiylashtirish jarayonlari raqamli platformalar asosida amalga oshirilishi, elektron auksionlar (E-auksion, IPO, SPO) orqali investorlar ishtirokini kengaytirish va tijorat banklariga moliyaviy nochor korxonalarni transformatsiya qilish vakolatlarini berish mexanizmlari mustahkamlandi.

Bundan tashqari, iqtisodiy islohotlar doirasida davlat ulushi saqlanib qolgan yirik korxonalar — energetika, transport, kimyo va metallurgiya sohalarida — bosqichma-bosqich aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, korporativ boshqaruv tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish, strategik investorlarni jalb qilish va fond bozorini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. 2024–2025-yillar davomida kimyo sanoati, farmatsevtika, logistika va transport sektorlarida davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha amaliy natijalarga erishildi.

Bugungi kunda davlat korxonalarini isloh qilish jarayonida iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda, ijtimoiy barqarorlik, bandlikni saqlash, ekologik barqarorlik va innovatsion boshqaruv tamoyillariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, tijorat banklari balansiga o'tgan korxonalarni qayta tiklash, ularni zamonaviy texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish va iqtisodiyot aylanishiga qayta jalb etish orqali davlat aktivlaridan oqilona foydalanish mexanizmlari joriy etilmoqda.

Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, davlatning iqtisodiyotdagi ulushi kamaygan sari resurslardan samarali foydalanish, raqobat muhitining kengayishi va investitsion faollik darajasi oshadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston tajribasi xususiylashtirishning evolyutsion modeli sifatida ajralib turadi. Bu modelning o'ziga xos jihati — ijtimoiy barqarorlikni saqlagan holda, iqtisodiy liberallashtirishni chuqurlashtirish va davlat ishtirokini bosqichma-bosqich kamaytirishdan iboratdir.

Shunday qilib, davlat korxonalarini isloh qilish va xususiylashtirish jarayonlari O'zbekiston iqtisodiyotining yangi bosqichini — samarador, raqobatbardosh va innovatsion iqtisodiyot sari yo'lni belgilab bermoqda. Ushbu maqola aynan shu jarayonlarning zamonaviy bosqichlarini, normativ-huquqiy asoslarini, iqtisodiy mexanizmlarini va strategik ahamiyatini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilishga bag'ishlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston iqtisodiyotida davlat korxonalarini isloh qilish va xususiylashtirish jarayoni mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ilmiy tahlil va amaliy siyosatning markaziy yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu jarayon bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish, mulkchilik shakllarini diversifikatsiya qilish va davlat ishtirokini kamaytirish orqali milliy iqtisodiyotni raqobatbardosh shaklga keltirishni nazarda tutadi [1].

Birinchi Prezident I. A. Karimov o'z asarlarida O'zbekiston iqtisodiyotini inqilobiy o'zgarishlarsiz, "evolyutsion yo'l" bilan bozorga moslashtirish g'oyasini ilgari surgan. U "O'zbekiston bozor islohotlari yo'lida" nomli asarida



xususiylashtirishning maqsadi davlatning xo'jalik faoliyatidan bosqichma-bosqich chiqishini, tadbirkorlik va xususiy mulkdorlikni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdan iborat ekanini ta'kidlagan [3]. Shu bilan birga, "o'zbek modeli"ning besh tamoyili — bosqichlilik, davlatning bosh islohotchi roli, ijtimoiy himoya, qonun ustuvorligi va iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish — mamlakatda xususiylashtirish siyosatining nazariy asosini yaratdi.

Keyingi bosqichlarda Prezident Sh. M. Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar ushbu modelni zamonaviy sharoitlarga moslashtirdi. "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasida davlat ishtirokini kamaytirish, iqtisodiyotni liberallashtirish, raqamli boshqaruvni joriy etish va xususiy mulkni himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi [1], [2]. Xususan, 2024-yil 14-fevralda qabul qilingan "Davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonun (O'RQ-907) davlat aktivlarini tasarrufdan chiqarishning shaffof, raqamli va investorlar uchun qulay mexanizmlarini belgilab berdi [5].

Mahalliy olimlar H. Abdullayev va A. Yunusov o'zlarining "Iqtisodiyot nazariyasi" asarida davlat tasarrufidan chiqarishning iqtisodiy mohiyatini mulkchilikning iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta'siri bilan bog'laydilar [7]. Ularning fikricha, xususiylashtirish korxonalarni moliyaviy mustaqillikka olib chiqadi, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi va tadbirkorlik muhitini shakllantiradi. Shunga o'xshash yondashuvni A. Qo'chqorov va U. Sodiqov ham ilgari surib, xususiylashtirishni iqtisodiy islohotlarning "drayveri" sifatida baholaydilar [8].

Xalqaro miqyosda esa xususiylashtirish jarayonlari bo'yicha J. Stiglitz, D. North, P. Samuelson kabi iqtisodchilar asarlarida davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish orqali bozor samaradorligini oshirish, raqobat muhitini kengaytirish va innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish g'oyalari ilgari surilgan. Ayniqsa, Stiglitz [10] o'z tadqiqotlarida "samarali xususiylashtirish" uchun muhim shart sifatida kuchli huquqiy institutlar, raqamli shaffoflik va ijtimoiy himoyaning uyg'unlashuvi zarurligini ta'kidlaydi.

O'zbekiston tajribasi ham ushbu nazariy qarashlarga yaqin bo'lib, xususiylashtirish jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgan: dastlab kichik mulk obyektlari (1992–1993), keyinchalik yirik sanoat korxonalari (1994–1998) va hozirda strategik sektorlar (2017–2025) bosqichida. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda mamlakat yalpi ichki mahsulotining 80 foizdan ortig'i nodavlat sektor hissasiga to'g'ri kelmoqda, bu esa xususiylashtirishning ijobiy natijalaridan dalolat beradi [9].

Bundan tashqari, O'zbekiston tajribasida tijorat banklari islohotlarning faol moliyaviy vositachisiga aylangani e'tiborga molikdir. Ular moliyaviy nochor korxonalarni sotib olish, ularni transformatsiya qilish va qayta iqtisodiyot aylanishiga kiritish orqali xususiylashtirishning yangi modelini shakllantirmoqda. Shu jihatdan, 2024–2025-yillardagi xususiylashtirish siyosati avvalgi bosqichlardan farqli ravishda faqat "mulk sotish" emas, balki korxonaning moliyaviy, texnologik va boshqaruv salohiyatini yangilashga qaratilgan kompleks islohot tusini oldi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning zamonaviy xususiylashtirish modeli — bu ijtimoiy barqarorlikni saqlagan holda iqtisodiy liberallashtirishni chuqurlashtirish, raqamli boshqaruvni joriy etish va korporativ boshqaruvni takomillashtirishni birlashtirgan milliy konseptual tizimdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda davlat korxonalarini isloh qilish va xususiylashtirish jarayonlarini tahlil etishda tizimli, qiyosiy va empirik yondashuvlar qo'llanildi. Tizimli tahlil orqali islohotlarning normativ-huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy asoslari o'rganildi. Qiyosiy metod yordamida O'zbekiston tajribasi Rossiya, Polsha va Janubiy Koreya xususiylashtirish modellari bilan solishtirildi. Empirik yondashuv doirasida 1992–2025-yillar kesimida davlat statistika qo'mitasi, Moliya vazirligi va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi ma'lumotlari tahlil qilindi. Shuningdek, hujjatli tahlil usuli orqali Prezident farmonlari, qonunlar va hukumat qarorlari o'rganilib, xususiylashtirishning samaradorlik ko'rsatkichlari iqtisodiy nazariya va amaliy natijalar asosida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida davlat korxonalarini isloh qilish va xususiylashtirish jarayoni bosqichma-bosqich, tizimli yondashuv asosida amalga oshirildi. Har bir bosqich mamlakat iqtisodiyotining transformatsiya jarayonida alohida rol o'ynagan bo'lib, ularning har biri ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni saqlagan holda, mulkchilik munosabatlarini yangilash, xususiy sektorni rivojlantirish va investitsion faollikni oshirishga xizmat qildi.


Birinchi bosqich (1992–1993-yillar) — kichik xususiylashtirish davri bo'lib, bu jarayon aholining keng qatlamlarini mulkdorlikka jalb etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirishga qaratilgan edi. Asosiy yo'nalishlar savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat va kichik sanoat obyektlarini xususiy sektor tasarrufiga o'tkazishdan iborat bo'ldi [6]. Mazkur davrda 53 902 ta obyekt davlat tasarrufidan chiqarilgan, 18 mingdan ortiq oilaviy korxona va 1,7 mingta yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati tashkil etilgan. Shu bilan birga, 15 mingga yaqin fermer xo'jaligi barpo etilib, 1993-yilda yalpi ichki mahsulotning 35 foizi nodavlat sektor hissasiga



to'g'ri keldi. Ushbu bosqich mamlakat iqtisodiyotida mulkdorlar sinfini shakllantirishga va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga zamin yaratdi.

Ikkinchi bosqich (1994–1998-yillar) — ommaviy xususiyashtirish davri sifatida e'tirof etiladi. Bu bosqichda yengil, oziq-ovqat, qurilish, transport, aloqa va farmatsevtika tarmoqlaridagi minglab korxonalar davlat tasarrufidan chiqarildi. 180 mingdan ortiq korxona aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilib, aholiga va ishchi-xodimlarga 2 milliondan ortiq aksiya va cheklar tarqatildi. Mazkur mexanizm aholining barcha qatlamlarini mulkdorlik jarayoniga keng jalb etish, o'rta sinfni shakllantirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, iqtisodiyotda raqobat muhiti kengayib, yangi ishlab chiqarish subyektlari vujudga keldi.

Uchinchi bosqich (1999–hozirgacha) — strategik va raqamli xususiyashtirish davridir. Bu davrda yirik korxonalar, xususan, yoqilg'i-energetika, kimyo, metallurgiya va mashinasozlik sohalarida mulkchilik shakllarini diversifikatsiya qilish, xoldinglar, konsernlar, moliya-sanoat guruhlarini tashkil etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi [7]. Ayniqsa, 1998–1999-yillardan boshlab xorijiy investitsiyalarni jalb etish siyosati faollashib, bu sanoat salohiyatini sezilarli darajada oshirdi.



1-rasm. Xususiyashtirish bosqichlari va YAIMda nodavlat sektor ulushi (1991–2025-yillar bo'yicha)

So'nggi yillarda xususiyashtirish jarayonlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. 2024-yil 14-fevralda qabul qilingan "Davlat mulkini xususiyashtirish to'g'risida"gi yangi Qonun (O'RQ–907) orqali davlat aktivlarini boshqarish tizimi tubdan yangilandi. Qonunda davlat mulkini realizatsiya qilish, uy-joy fondini xususiyashtirish, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini sotish tartibi va investorlar uchun kafolatlar belgilandi [5]. Shu bilan birga, davlat aktivlarini elektron savdo platformalari orqali ochiq auksionlarda sotish, IPO va SPO mexanizmlari asosida aksiyalarni xalqaro fond bozorlarida taklif etish imkoniyatlari kengaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2024–2025-yillarda iqtisodiyotni liberallashtirish jarayoni yanada jadallashdi. Kimyo sanoati, transport, energetika va farmatsevtika tarmoqlarida davlat ulushi kamaytirilib, strategik xorijiy investorlar jalb qilinmoqda. Shuningdek, tijorat banklariga iqtisodiy nochor korxonalarni qayta tiklash, ularning aktivlarini transformatsiya qilish va bozorga qaytarish vakolatlar berildi. Bu mexanizm xususiyashtirish jarayonining zamonaviy bosqichida moliyaviy vositachilarning faol rolini kuchaytirdi.

Tijorat banklari endilikda nafaqat kredit tashkiloti, balki iqtisodiy islohotlarning bevosita ishtirokchisi sifatida faoliyat yuritmoqda. Ular bankrot korxonalarning ustav kapitalini to'liq nazoratga olib, yangi boshqaruv kompaniyalari orqali ularni sog'lomlashtirish, raqamli texnologiyalar asosida qayta ishlab chiqarishga jalb etish imkoniyatiga ega. Bu yondashuv ishlab chiqarish quvvatlarining tiklanishiga, ish o'rinlari saqlanishiga va iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishga olib kelmoqda.

Bugungi kunda davlat ishtirokidagi yirik korxonalar aksiyalarining bir qismini ochiq fond bozorida sotish (IPO, SPO), strategik investorlar bilan bevosita muzokaralar olib borish va elektron auksionlar orqali realizatsiya qilish keng joriy etilmoqda. Shu bilan birga, "management-buy-out (MBO)" modeli asosida rahbariyat va ishchi-xodimlarga aksiyalarni taklif etish orqali korxonalarning ichki manfaatdorlik tizimi kuchaymoqda.

Ayni paytda, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning yangi tahririni ishlab chiqish zarurati yuzaga kelgan. Bu hujjat korporativ boshqaruvni xalqaro standartlarga moslashtirish, minoritar aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish, shaffoflik va axborot ochiqligini kengaytirish imkonini beradi.



Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning xususiylashtirish siyosati bosqichma-bosqich chuqurlashib, iqtisodiy samaradorlik, investitsion jozibadorlik va raqobat muhitini kuchaytirish yo'nalishida sezilarli natijalar bermoqda. Davlat korxonalarini isloh qilishda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, banklar ishtirokini kengaytirish, elektron savdolar orqali shaffoflikni ta'minlash va strategik investorlarni jalb etish O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va innovatsion rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, davlat korxonalarini isloh qilish, ularni xususiylashtirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali zamonaviy iqtisodiyotni shakllantirish O'zbekistonning iqtisodiy siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarining bosqichma-bosqich, puxta o'ylangan strategiyalar asosida olib borilishi mulkchilik shakllarining diversifikatsiyasini ta'minlabgina qolmay, balki mamlakatda raqobatbardosh, samarador va innovatsion iqtisodiy muhitni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, korxonalarda ilg'or boshqaruv tizimlari, ochiqlik, investorlar ishonchini oshirish, shaffoflik va ijtimoiy mas'uliyatli yondashuvni qaror toptirish bugungi davrning ustuvor talablari sirasiga kiradi. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning izchil davom ettirilishi O'zbekiston iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh. M. Mirziyoyev, Yangi O'zbekiston strategiyasi, Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Sh. M. Mirziyoyev, Yangi O'zbekiston – islohotlar va natijalar davri, Toshkent: O'zbekiston, 2022.
3. I. A. Karimov, O'zbekiston bozor islohotlari yo'lida, Toshkent: O'zbekiston, 1995.
4. O'zbekiston Respublikasi, Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida Qonun, 1991, qayta tahrir – lex. uz.
5. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'RQ–907-son, 14.02.2024, [Online]. Available: <https://lex.uz/docs/-6800515>.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 133-sonli Qaror, 18.03.2022, "Xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
7. H. Abdullayev, A. Yunusov, Iqtisodiyot nazariyasi, Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
8. A. Qo'chqorov, U. Sodiqov, Iqtisodiy islohotlar va xususiylashtirish, Toshkent: Moliya, 2021.
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, [Online]. Available: <https://stat.uz>.
10. J. Stiglitz, Whither Socialism?, Cambridge: MIT Press, 1994.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
